

**O'ZBEKISTONNING ONALIK VA BOLALIKNI MUHOFAZA QILISH  
TIZIMI DOIRASIDA GERMANIYA BILAN XALQARO HAMKORLIGI**

**UZBEKISTAN'S INTERNATIONAL COOPERATION WITH GERMANY  
WITHIN THE FRAMEWORK OF THE MATERNITY AND CHILDHOOD  
PROTECTION SYSTEM**

**МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА С  
GERMANIYEY V RAMKAX SISTEMY ZASHITY MATERINSTVA I  
DETSTVA.**

*Tirkasheva Dinora O'ktam qizi*

*QarDU tayanch doktoranti*

*E-mail. tirkashevadinora15gmail.com*

**Annotatsiya:** Mustaqillik yillarida aholi salomatligini yaxshilash, onalar va bolalar o'limini kamaytirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, 160 ming yevro miqdorida insonparvarlik yordami, zamonaviy PZR laboratoriyalari, diagnostika jihozlari, COVID-19dan himoyalash vositalari, lmiy-tadqiqot muassasasi — Robert Kox instituti va mashhur “Sharite” klinikasi mutaxassislari bilan yaqindan hamkorlik o'rnatilishi ham tibbiyot sohasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish, “Germaniya —O'zbekiston tibbiy konsultativ-diagnostika markazi” tashkil etilishi, Friedensdorf International” xalqaro xayriya tashkiloti ko'magida uyushtirilayotgan insonparvarlik aksiyasi, nemis kompaniyasi — SAP bilan hamkorlikda mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishga qaratilgan yirik loyiha, Germaniyaning Globogate Concept AG konserni o'rtasida hamkorlik shartnomasi

**Kalit so'zlar:** Sog'liqni saqlash vazirligi, COVAX dasturi, AstraZeneca vaksinasi, “Sharite” klinikasi, “Heinemann Medizintechnik”, “Karl Storz”, “Greiner” va “KfW Bank Group” kompaniyalari, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ), Germaniya taraqqiyot banki (KfW),

**Abstract:** During the years of independence, efforts were made to improve the health of the population, reduce maternal and child mortality, improve the quality of medical services, humanitarian aid in the amount of 160 thousand euros, modern PCR laboratories, diagnostic equipment, means of protection against COVID-19, close cooperation with the scientific and research institution - the Robert Koch Institute and the famous "Sharite" clinic, raising relations in the field of medicine to a new level, the establishment of the "Germany - Uzbekistan Medical Consultative and Diagnostic Center", a humanitarian campaign organized with the support of the international charitable organization "Friedensdorf International", a large project aimed at digitizing

the country's healthcare system in collaboration with the German company - SAP, a cooperation agreement between the German concern Globogate Concept AG

**Keywords:** Ministry of Health, COVAX program, AstraZeneca vaccine, "Sharite" clinic, "Heinemann Medizintechnik", "Karl Storz", "Greiner" and "KfW Bank Group", German international cooperation society (GIZ), German Development Bank (KfW)

**Аннотация:** В годы независимости были предприняты усилия по улучшению здоровья населения, снижению материнской и детской смертности, повышению качества медицинских услуг, оказанию гуманитарной помощи в размере 160 тысяч евро, модернизации ПЦР-лабораторий, диагностического оборудования, средств защиты от COVID-19, тесному сотрудничеству с научно-исследовательским институтом – Институтом Роберта Коха и известной клиникой «Шарите», выведению связей в области медицины на новый уровень, созданию «Германо-узбекского консультативно-диагностического центра», проведению гуманитарной кампании при поддержке международной благотворительной организации «Фриденсдорф Интернешнл», реализации крупного проекта по цифровизации системы здравоохранения страны в сотрудничестве с немецкой компанией SAP, а также соглашения о сотрудничестве между немецким концерном Globogate Concept AG.

**Ключевые слова:** Министерство здравоохранения, программа COVAX, вакцина AstraZeneca, клиника «Шарите», «Heinemann Medizintechnik», «Karl Storz», «Greiner» и «KfW Bank Group», Немецкое общество международного сотрудничества, Немецкий банк развития. (КФВ),

Onalik va bolalikni muhofaza qilish har bir davlatning ijtimoiy siyosatida muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston mustaqillik yillarida aholi salomatligini yaxshilash, onalar va bolalar o‘limini kamaytirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish maqsadida qator islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu jarayonlarda xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2022-yil Sog‘liqni saqlash vazirligida Germaniya Federativ Respublikasining yurtimizdagi Favqulodda va muxtor elchisi Tilo Klinner bilan uchrashuv jarayoni bo‘lib o‘tdi. Bu uchrashuv davomida keyingi yillarda ikki tomonlama hamkorlik aloqalari nafaqat siyosiy-iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy sohalar, balki tibbiyot yo‘nalishida ham muvaffaqiyatli rivojlanib borayotgani qayd etildi. Xususan, Germaniya mamlakatimizga pandemiya oqibatlarini yengib o‘tishda katta amaliy yordam ko‘rsatdi. Ushbu davlat ko‘magi bilan COVAX dasturi doirasida yurtimizga AstraZeneca vaksinasi yetkazib berildi.

Bundan tashqari, 160 ming yevro miqdorida insonparvarlik yordami, zamonaviy PZR laboratoriyalari, diagnostika jihozlari, COVID-19dan himoyalash vositalari

ham taqdim etildi. Ayniqsa, koronavirusga qarshi kurashda yuqori samara beruvchi 10 ming doza sun'iy "antitanachalar kokteyli" preparati yuborilgani xastaliklarni davolashda katta natija berdi. Yevropaning yuqumli kasalliklarni o'rganish sohasidagi nufuzli ilmiy-tadqiqot muassasasi — Robert Kox instituti va mashhur "Sharite" klinikasi mutaxassisleri bilan yaqindan hamkorlik o'rnatilishi ham tibbiyot sohasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim omil bo'lmoqda.

"Heinemann Medizintechnik", "Karl Storz", "Greiner" va "KfW Bank Group" kompaniyalari ishtirokida Qoraqalpog'iston Respublikasida umumiy qiymati qariyb 2 mln. yevroga teng "Germaniya — O'zbekiston tibbiy konsultativ-dagnostika markazi" tashkil etilishi hamda bu yerda nemis shifokorlari tomonidan operatsiyalar o'tkazilishi esa Orolbo'yi mintaqasi aholisi uchun qo'shimcha imkoniyat yaratyapti. Shu bilan birga, "Friedensdorf International" xalqaro xayriya tashkiloti ko'magida uyushtirilayotgan insonparvarlik aksiyasi doirasida o'zbekistonlik bemor bolalar Germaniyaga davolanish uchun yuborilmoqda.

Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan birgalikda amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar ham katta natija ko'rsatmoqda. Qolaversa, mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilishga doir qator loyihalar Germaniya taraqqiyot banki (KfW) tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanyapti. Jumladan, yurtimizda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish yo'nalishida 27 million yevro miqdoridagi grant ajratilgan. Uning doirasida respublika va viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlandi, mutaxassislar malakasi oshirildi.

Silga qarshi kurash sohasiga ajratilgan 3 million yevro miqdoridagi grant asosida esa shu yo'nalishdagi shifo maskanlari zamonaviy diagnostika uskunolari va tibbiyot jihozlari bilan ta'minlandi. KfW bankining 34,5 mln. yevrolik navbatdagi loyihasi viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarini modernizatsiya qilish va faoliyati samaradorligini oshirishga yo'naltirildi. Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida amalga oshirilgan loyihaga ko'ra, bu yerga MSKT, angiograf, rentgenoskopik uskunalar, IVL qurilmalari o'rnatildi.

2022-2025-yillarga mo'ljallangan 13,5 million yevro miqdoridagi yana bir loyiha Termiz shahrida tibbiy ta'lim va malaka oshirish dasturlarini modernizatsiya qilishni ko'zda tutadi. Uning doirasida Termiz shahridagi tibbiyot kolleji zarur jihozlar, jumladan, 200 nafar o'rta tibbiyot xodimini o'qitish imkonini beruvchi simulyatsiya vositalari bilan ta'minlanadi.

Uchrashuvda axborot-kommunikatsiya sohasida dunyoda alohida nufuzga ega nemis kompaniyasi — SAP bilan hamkorlikda mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishga qaratilgan yirik loyihani amalga oshirishga doir rejalar muhokama etildi.

Shu bilan birga, muloqot davomida Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi bilan Germaniyaning yetakchi klinikalari o'rtasida yaqin aloqalarni yo'lga qo'yish va bu orqali bemor o'g'il-qizlarda murakkab jarrohlik amaliyotlarini o'tkazish, kadrlar tayyorlash, tibbiyot xodimlarining ushbu mamlakatda malaka oshirishini ta'minlash kabi qator masalalar yuzasidan ham fikrlar almashinildi.<sup>1</sup>

Eng quvonarli jihati shundaki, 2025-yil mamlakatimiz elchixonasida Germaniyada faoliyat yuritayotgan O'zbekiston tibbiyot xodimlarining birinchi qurultoyi bo'lib o'tdi.<sup>2</sup>

Elchixona tomonidan "Kox-Avitsenna" Germaniya-O'zbekiston tibbiyot jamiyati (DUMGKA) bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirda jamiyat a'zolari, mezbon mamlakat tibbiyot sohasida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'zbekistonlik shifokorlar, hamshiralar, ilmiy izlanuvchilar hamda soha bo'yicha tahsil olayotgan talabalar qatnashdi.

Qurultoydan asosiy maqsad o'zbek-nemis tibbiyot hamjamiyati o'rtasidagi aloqalarni tizimlashtirish, bilim va tajriba almashuvini doimiy platformaga aylantirish bo'ldi.

Tadbirning ochilish qismida mamlakatimiz elchisi Dilshod Axatov ishtirokchilarni birinchi qurultoy bilan qutladi va ularga muvafaqqiyat tiladi. Diplomat ikki davlat o'rtasida sog'liqni saqlash sohasidagi hamkorlikni kengaytirish strategik ustuvor yo'nalish ekanini ta'kidlab, sog'liqni saqlash sohasida O'zbekiston – Germaniya o'rtasida hamkorlikni yanada kengaytirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy yangiliklarni joriy etish ustuvor yo'nalish ekanligini qayd etdi.

2023-yildan beri Samarqand va Berlinda tashkil etib kelinayotgan forumlarning ahamiyatini qayd etildi. Shuningdek, 2026-yilda O'zbekistonda bo'lib o'tadigan navbatdagi forum haqida ma'lumot berildi. Tadbirda yangi tashkil etilayotgan Germaniyadagi o'zbekistonlik tibbiyot xodimlari jamiyatining maqsad va vazifalari hamda rejalari haqida ham ma'lumot berildi.

"Kox-Avitsenna" Germaniya–O'zbekiston tibbiyot jamiyati (DUMGKA) raisi professor Helmut Xan nemis va o'zbek tibbiyot maktablari o'rtasidagi tarixiy hamkorlik va uning bugungi kun amaliyotidagi ahamiyatiga e'tibor qaratdi. U qo'shma ilmiy-amaliy anjumanlar, professor-o'qituvchilar almashinuvi, laboratoriya standartlarini yaqinlashtirish va telemeditsina yechimlarini joriy etish kabi yo'nalishlar amaliy natija berishini ta'kidladi.

Shuningdek, so'zga chiqqanlar mamlakatlarimiz tibbiyot o'quv muassasalari va klinikalari o'rtasida bilim va tajriba almashish, telemeditsina hamda turli zamonaviy davolash yondashuvlari bo'yicha faol hamkorlikni yanada kengaytirishga tayyorliklarini bildirdilar.

<sup>1</sup> Sog'liqni saqlash vazirligi matbuot xizmati.

<sup>2</sup> „Dunyo“ AA muxbiri.

Buning amaliy natijasi o'laroq, Toshkentning Abu Ali ibn Sino nomidagi 1-son Respublika jamoat salomatligi texnikumi bazasida Germaniya tibbiyot akademiyasi ochildi.

Poytaxt hokimligining ma'lum qilishicha, loyiha Migratsiya agentligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Germaniyaning Aaxen universitet klinikasi hamda Shveysariyaning Globogate Concept AG kompaniyasi hamkorligida amalga oshirildi.

Ochilish marosimida Migratsiya agentligi direktori Behzod Musayev, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'irotboy Sharipov, sog'liqni saqlash vaziri Asilbek Xudayarov, Toshkentdagi Germaniya elchixonasi — missiya rahbarining o'rinbosari Klemens Shvanhold, Capmont GmbH kompaniyasi bosh direktori Armin Veibel, Axen universiteti klinikasi direktori Mario Hoben va boshqa xorijiy mehmonlar ishtirok etdi. 20-oktyabrda bo'lib o'tgan ochilish marosimida loyiha haqida batafsil ma'lumot hamda kutilayotgan natijalar taqdim etilib, akademiya bilan tanishuv tashkil qilindi.

Keltirilishicha, akademiya Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichi bo'lib, o'rta bo'g'in tibbiyot mutaxassislarini Germaniya standartlari asosida tayyorlash, ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda mehnat migratsiyasi uchun yangi imkoniyatlar yaratishni maqsad qilgan.

“Akademiya birinchi va ikkinchi o'quv yillari davomida asosiy e'tibor nemis tilini chuqur o'rgatishga qaratiladi. Uchinchi o'quv yilida esa hamshiralik va parvarish yo'nalishidagi maxsus kasbiy bilimlar o'rgatiladi”, degan Globogate Concept AG kompaniyasi bosh ijrochi direktori Song Vu Pai.

Hamshiralar akademiyasi tashkil etilishi haqida prezidentning 2023-yil 20-iyundagi “Ma'muriy islohotlar doirasida sog'liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida belgilangandi. 2024-yilning sentyabrida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Germaniyaning Globogate Concept AG konserni o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolangandi.

E'tiborli jihat, bunday ta'lim maskanlari mamlakatimizdagi Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumlarida ikki o'lka ta'lim dasturlarini uyg'unlashtirgan holda bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. 2025-2026 o'quv yili uchun 750 ta maxsus kvota ajratildi.

Ilgari Germaniyada tibbiyot sohasida ishlash istagidagi “hamshiralik ishi” yo'nalishida diplomi borlar bilan shartnoma qilinadi va GFR standartlariga qayta tayyorlanar edi. Nomzodlar ushbu davlatga borgach, yana 6–8 oy vaqtni moslashish uchun sarflardi. Endilikda, bu jarayonni yurtimizdayoq amalga oshirish imkoni yaratildi. Akademiya maqsadli qabullar asosida Germaniyada ishlash istagida bo'lgan nomzodlar tanlab olinadi. Talabalar 3 yillik o'qish davridayoq Germaniya

tibbiyot standartlari asosida tahsil olib, ikki davlat tomonidan tan olinadigan diplom va B2 darajadagi nemis tili sertifikatiga ega bo'ladilar. Ushbu diplom bilan ular Germaniyada to'g'ridan-to'g'ri malakali o'rta tibbiyot xodimi sifatida ishlash huquqini qo'lga kiritadilar.

Ma'lumot o'rnida aytish kerak, hozirgi kunda Germaniyaning birgina "Asklepios" klinikasida yuzlab o'zbekistonlik hamshiralar faoliyat yuritmoqda.

Mazkur klinika boshqaruv direktori Yanis Proysning so'zlariga ko'ra, o'zbek hamshiralari mehnatsevarligi, kasbiy bilim va ko'nikmasi yuqoriligi, insonparvarligi va mas'uliyatli yondoshuvi bilan ajralib turadi. Ular o'z ishlarini sidqidildan bajaradi va uzoq muddatli ish faoliyatini rejalashtiradi. Ayni shu sabablarga ko'ra O'zbekistonda tayyorlanayotgan hamshiralarga bo'lgan ishonch baland.

O'z navbatida, Germaniya klinikalari chet ellik malakali hamshiralarga bir qator talablar ham qo'ygan. Xususan, ishga bormoqchi bo'layotgan hamshiralardan yuqori malaka, til bilish va kasbiy mas'uliyat talab etiladi. Chet ellik hamshiralar Germaniya standartlariga muvofiq hamshiralik ishi bo'yicha to'liq o'rta yoki oliy ma'lumot diplomiga ega bo'lishlari shart. Nemis tilini bilishi va klinikalarda bemorlar bilan muloqot, hujjatlar yurita olish, shuningdek, tibbiy terminologiyani yetarlicha tushunish talab etiladi. Bundan tashqari, hamshira jismonan sog'lom bo'lishi va uzluksiz smenalarda ishlay olishi lozim. Stressga chidamlilik, mas'uliyatlilik, jamoada ishlash qobiliyati muhim baholanadi.

B.Valiyevning ta'kidlashicha, migratsiya sohasida olmon diyori bilan hamkorlik GFR sobiq kansleri Olaf Sholsning 2024 yil sentyabr oyida diyorimizga amalga oshirgan tashrifi doirasida yo'lga qo'yilgan. O'shanda mamlakatlarimiz o'rtasida "Migratsiya va mobillik sohasida keng qamrovli sheriklik to'g'risidagi hukumatlararo bitim" imzolandi va bu hujjat joriy yil 4 martdan kuchga kirdi. Bu hujjat mamlakatlarimiz o'rtasidagi yaqin va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamladi, deyish mumkin.<sup>3</sup>

Xulosa qilib aytganda, migratsiya yo'nalishida bu kabi islohotlarning amalga oshirilishidan ko'zlangan maqsad – xalqimiz uchun munosib ish sharoitlarini yaratish, ularning turmush tarzini yanada yaxshilash, xalqaro tajriba orqali milliy kadrlar sifatini yanada yaxshilashdan iborat.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Муртазаева Р.Х. Толерантность как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане. – Ташкент.: Узбекистан. 2010. 151 с.
2. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (WHO). Maternal Mortality: Key Facts. Geneva, 2023.

<sup>3</sup> Gozal Sattorova O'za

3 World Health Organization. Newborns: Improving Survival and Wellbeing. Geneva, 2022.

4 Toshtemirova N.D History of research works in the field of maternal and child health in Uzbekistan. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), India. Volume 7 Issue 4 April 2021.

5. Тоштемирова. Н. Д. Проблемы охраны материнства и детства в Узбекистане. Eurasia Science” XXVII Международная научно-практическая конференция. 15 февраля, – М., 2020.

6.Yuz.uz

7.Gazeta.uz